O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi
№ BD.24/14-9/3.34
2024 yil «12» 08

“TASDIQLAYMAN”
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
rektori O.A. Atanliyazova
2024 yil «12» 08

YUZ - JAG‘ KASALLIKLARI VA JAROHATLARI MODUL DASTURI

4

Bilim sohasi:	900000	- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot
Ta`lim sohasi:	910000	- Sog‘liqni saqlash
Ta`lim yo‘nalishi:	60910100	-Stomatologiya

Nukus – 2024

Fan\ modul kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
	2024-2025	7,8	5

Fan\ modul turi	Ta’lim turi	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	Qoraqalpoq/ Uzbek / Rus	6

1	Fanning nomi	Auditoriya mashǵulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	YUZ - JAG‘ KASALLIKLARI VA JAROHATLARI	90	90	180

2 **I.Fanning mazmuni**

O‘quv modulining maqsadi: Yuz – jag‘ kasalliklari va jarohatlari fanini o‘qitishdan maqsad –talabalarga aholiga ambulator va statsionar xirurgik stomatologik yordam ko‘rsatish, xirurgik stomatologik kasalliklar va jarohatlari profilaktikasini olib borishni o‘rgatishdan iborat.

O‘quv modulining vazifalari:

– umumiy amaliyot stomatologini tayyorlashni inobatga olgan holda talabalarga aholiga ambulator va statsionar xirurgik stomatologik yordam ko‘rsatishni;

- yuz-jag‘ sohasi (YUJS) jarohatlari va yallig‘lanish kasalliklari bor bemorlarga xirurgik stomatologik yordam tashkillashtirishni;

- YUJS jarohatlari va yallig‘lanish kasalliklari klinik simptomatikasini, zamonaviy tashxislash usullarini, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini o‘rgatish;

- sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish va o‘zlashtirish hisoblanadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Modul bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar:

Talaba:

– yuz – jag' sohasi yallig'lanish kasalliklari statistikasi;
– yuz – jag' sohasi yallig'lanish kasalliklari klassifikatsiyasi;
– yuz – jag' sohasi yallig'lanish kasalliklarining klinik kechishi;
– yuz – jag' sohasi yallig'lanish kasalliklarini davolashning o'ziga xosligi;
– yuz o'rta sohasi jarohatlari statistikasi;
– yuz o'rta sohasi jarohatlari klassifikatsiyasi;
– yuz yumshoq to'qimalari, tishlar va pastki jag' jarohatlarining o'ziga xosligi;
– yuz – jag' sohasi yallig'lanish kasalliklarini davolashni o'ziga xosligi;
– yuz o'rta sohasi suyaklari sinishlarining statistikasi;
– yuz o'rta sohasi suyak sinishlarining klassifikatsiyasi;
– yuz o'rta sohasi suyaklari sinishlarini tashxislash;
– yuz o'rta sohasi suyaklari sinishlarini davolashning o'ziga xosligi;
– tinchlik va urush vaqtida harbiy stomatologning vazifalari;
– yuz o'rta sohasi o'qotar jarohatlarining statistika va klassifikatsiyasi haqida *tasavvurga ega bo'lishi;*

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

– yuz o'rta sohasi jarohatlarida va yallig'lanish kasalliklarida yordam ko'rsatishni;
– yuz o'rta sohasi jarohatlarida va yallig'lanish kasalliklarida tekshirish usullarini mustaqil aniklashni;
– yuz o'rta sohasi jarohatlarida va yallig'lanish kasalliklarida jarrohlik aralashuvning kerakli xajmini mustaqil aniklashni;
– amaliy ko'nikmalarni bajarish va olingan natijalarni mustaqil baholashni;
– sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
– odontogen yallig'lanish kasalliklarida sababchi tishni aniqlash, periostit va osteomielit kasalliklarida o'tuv burmasi va alveolyar o'siqni paypaslash;
– abssess, flegmona va limfadenitlarda jag' atrofi va jag' osti sohalarini paypaslash;
– abssessni kesib ochish;
– tish saqlovchi operatsiyalarni o'tkazish (fantomda va bemorda);
– o'tkir yiringli periostitni davolash;
– jarohatga birlamchi jarrohlik ishlovi berish;
– teridagi choklarni olish;
– tish sinishlarini davolash
– tigershtedt shinasini bukish va taqish;
– burun suyaklari repozitsiyasi;
– yonoq suyaklari repozitsiyasi;
– yuqori jag' sinishlarida suyak bo'rtmalarini aniqlash;

– jag'lar sinishlarida Gippokrat bog'lamini qo'yish;
– oddiy bintli bog'lam qo'yish;
– pastki jag' sinishlarida bosim belgisini aniqlash;
– tashqi uyqu arteriyasini barmoq bilan bosish;
– pastki jag'ni oldinga chiqishini to'g'rilash;
– ayvi bo'yicha vaqtincha immobilizatsiyalash;

qon ketganda birinchi tibbiy yordam berish ***amaliy ko'nikmalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.***

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Yuz–jag' sohasining odontogen yallig'lanish kasalliklari

Osteomielit, abssesslar, flegmonalar, limfangit va limfadenitlar. Tasnifi. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi. Klinikasi, tashxisi, davosi va profilaktikasi.

2–mavzu. Noodontogen yallig'lanish kasalliklari

Furunkul, karbunkul, saramas yallig'lanishi va noma. Klinikasi, tashxisi, davolash. YUz–jag' sohasi yallig'lanish kasalliklari asoratlari va ularni oldini olish. (yuz venalari tromboflebiti, kavernoz sinus trombozi, meningit, mediastenit, sepsis).

3–mavzu. So'lak bezlarini yallig'lanish va distrofik kasalliklari

Klinikasi, tashxislash, davolash. YUz–jag' sohasi maxsus yallig'lanish kasalliklari (aktinomikoz, sil, zahm, OITS). Ushbu kasalliklarni davolash va oldini olish.

4–mavzu. YUz–jag' sohasi jarohatlarining tasnifi

YUz yumshoq to'qimalari jarohatlari. Pastki jag'ni sinishi va CHPJB chiqishi. YUz sohasi kuyishlari va yuz–jag' sohasi kombinirlangan jarohatlari. YUz–jag' sohasi jarohatlarining davosi va profilaktikasi.

5–mavzu. YUzning o'rta sohasi suyaklarini sinishlari (yuqori jag', yonoq suyagi, yonoq yoyi, burun suyaklari)

Tasnifi, klinika, diagnostika, davolash va profilaktika usullari. YUz–jag' sohasi birgalikdagi jarohatlari. Ekstremal holatlarda shoshilinch malakali tibbiy yordamni tashkillashtirish.

III. ***Moduldagi amaliy mashg'ulotlar mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

1. Jag' suyaklari o'tkir, o'tkir osti va surunkali odontogen osteomieliti.

2. Jag' yuz sohasi odontogen abssess va flegmonalari. Pastki jag' atrofi abssess va flegmonalari.
3. YUqori jag' atrofi abssess va flegmonalari: ko'z osti, lunj, ko'z kosasi abssess va flegmonalari. CHakka, chakka osti, qanotsimon tanglay sohalari absessi.
4. YUz–jag' sohalari noodontogen yallig'lanish kasalliklari: adenoabssess i adenoflegmona, limfangit va limfadeniti tasnifi, klinikasi, qiyosiy tashxisi va davolash. Saramas yallig'lanishi. YUz–jag' sohasi infeksion yallig'lanish kasalliklari (OITS, sil, zahm).
5. YUz–jag' sohasi abssess va flegmonalari hamda ularning asoratlarini umumiy davolash prinsiplari. YUz–jag' sohasi yallig'lanish kasalliklari asoratlari. Sepsis, septik shok, mediastenit.
6. So'lak bezlarini o'tkir va surunkali nomaxsus yallig'lanish kasalliklari. So'lak tosh kasalligi.
7. Tishlar chiqishi davridagi kasalliklari. Aql tishlarini chiqishidagi qiyinchiliklar. Retensiya, yarimretensiya, distopiya va o'tkir perikoronarit.
8. Chakka pastki jag' bo'g'imi artriti.
9. Yuz yumshoq to'qimalari jarohatlarini klinikasi va yuz yumshoq to'qimalari jarohatlariga birlamchi jarrohlik ishlov algoritmi.
10. Yuz o'rta qismi suyaklari (yuqori jag', burun, yonoq suyagi va yoyi) sinishlari. Jag'larning sinishida vaqtincha va doimiy immobilizatsiya usullari. Jag'larni sinishlarida operativ davolash usullari.
11. Pastki jag' sinishlari. Jag'larning sinishida vaqtincha va doimiy immobilizatsiya usullari. Jag'larni sinishlarida operativ davolash usullari.
12. Yuz yumshoq to'qimalari o'q otish qurolidan bo'lgan jarohatlari, jarohatlarga birlamchi jarrohlik ishlov algoritmi. Jag' suyaklarini o'q otish qurolidan bo'lgan jarohatlari.
13. Yuz jag' sohasi birgalikdagi jarohatlari. YUz jag' sohasining kuyishlari va yuz jag' sohasining sovuq olishi. YUz jag' sohasi jarohatlari erta va kechki asoratlari, ularni oldini olish.
14. Yuz jag' sohasi birgalikdagi va kombinirlangan jarohatlari. Klinikasi va davolash xususiyatlari. Ekstremal holatlarda shoshilinch malakali tibbiy yordamni tashkillashtirish. Parvarishlash va ovqatlantirish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy–metodik jihatdan tayyorlash;
- YUz–jag' sohasi jarohatlarining barcha ***klinik turlarida kasallik tarixini yozish va himoya qilish***;

YUz – jag' kasalliklari va jarohatlari fani bo'yicha klinik o'quv amaliyotni o'tish davrida talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

IV. Amaliy ko'nikmalar

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Odontogen yallig'lanish kasalliklarida sababchi tishni aniqlash, periostit va osteomielit kasalliklarida o'tuv burmasi va alveolyar o'siqni paypaslash;
2. Abssess, flegmona va limfadenitlarda jag' atrofi va jag' osti sohalarini paypaslash;
3. Abssessni kesib ochish;
4. O'tkir yiringli periostitni davolash;
5. Jarohatga birlamchi jarrohlik ishlovi berish;
6. Teridagi choklarni olish;
7. Tish sinishlarini davolash. Tigershtedt shinasini bukish va taqish;
8. Burun va yonoq suyaklari repozitsiyasi;
9. YUqori jag' sinishlarida suyak bo'rtmalarini aniqlash; Jag'lar sinishlarida Gippokrat bog'lamini qo'yish;
10. Oddiy bintli bog'lam qo'yish;
11. Pastki jag' sinishlarida bosim belgisini aniqlash;
12. Qon ketganda birinchi tibbiy yordam berish. Tashqi uyqu arteriyasini barmoq bilan bosish;
13. Pastki jag'ni oldinga chiqishini to'g'rilash;
14. Ayvi bo'yicha vaqtincha immobilizatsiyalash.

V. Mustaqil talim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. YUz yumshoq to'qimasini jarohati. YUz yumshoq to'qimasini jarohatlarini turlari. Jarohatini tekshirish usullari. YUz yumshoq to'qimasini jarohatini asosiy davolash usullari. Jarohatga birlamchi jarrohlik ishlovi. Jarohatni tikish usullari. Nuqsonli jarohatlar. Jarohatlarni bitishi. Operatsiyadan keyin jarohatni davolash

usullari.
2. Yuz yumshoq to'qimalari va suyaklarini o'q otar qurolidan bo'lgan jarohatlari.
3. Yuz–jag' sohasi jarohatlarini asoratlari.
4. Kataksimon o'sig'ining sinishi. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.
5. Pastki jag' chiqishlari va sinishi. Etiologiyasi, klinikasi, tashxisi va davolash.
6. Yuqori jag' sinishlari. Etiologiyasi, klinikasi, tashxisi va davolash.
7. Yuzni o'rta qismi suyaklarini sinishi. Burun suyaklari sinishi. Peshona bo'shlig'i va suyagini sinishi. Kalla–yuz suyaklarni sinishi. Kalla–yuz suyaklarini birgalikdagi jarohati. Politravma.
8. Jag'larning sinishida vaqtincha va doimiy immobilizatsiya usullari.
9. Jag'larni sinishlarida operativ davolash usullari.
10. Yuz yumshoq to'qimalari jarohatlari. YUz yumshoq to'qimalari jarohatlariga birlamchi jarrohlik ishlovi algoritmi.
11. Yuz yumshoq to'qimalari o'q otish qurolidan bo'lgan jarohatlari.
12. Jag' suyaklarini o'q otish qurolidan bo'lgan jarohatlari.
13. Yuz jag' sohasi birgalikdagi jarohatlari. Yuz jag' sohasining kuyishlari. Yuz jag' sohasining sovuq olishi.
14. Yuz jag' sohasi jarohatlari asoratlari.
15. Yuz jag' sohasi kombinirlangan jarohatlari. Klinikasi va davolash xususiyatlari. Parvarishlash va ovqatlantirish.
16. Yuz–jag' sohasi birgalikdagi jarohatlarini maxsus davolash.
17. Tishlar chiqishi davridagi kasalliklari. Aql tishlarini chiqishidagi qiyinchiliklar. Retensiya, yarim retensiya, distopiya. O'tkir perikoronarit. Rivojlanish algoritmi, tashxisi, davosi..
18. Yuz yumshoq to'qimalari jarohatlari. Yuz yumshoq to'qimalari jarohatlariga birlamchi jarrohlik ishlovi algoritmi.
19. Yuz jag' sohasining kuyishlari. sovuq olishi. Yuz jag' sohasi jarohatlari asoratlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:
- Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- Tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- Bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;
- Aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- Vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) echish.

SHuningdek talabaning mustaqil ishi bo'lib:
- Grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
- Krossvordlar tuzish va echish;

Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

3 **VI. Talim texnologiyalari va metodlari:**

Maruzalar

Interfaol keys-stadylar

Mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar

PBL (Muammolarga asoslangan ta'lim),

TBL (jamoaga asoslangan ta'lim),

RBL (tadqiqotga asoslangan ta'lim),

loyiha usuli

4 **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.

5 **Asosiy adabiyotlar**

1. Abdullaev SH.YU., Arjansev A.P. CHelyustno-litsevaya travmatologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Ilm Ziyo. 2019 y.
2. Azimov M.I. YUz-jag' travmatologiyasi. Darslik. – Toshkent. Ilm Ziyo.

2016 y.
3. Azimov M.I. Jarrohlik stomatologiya propedevtikasi. Darslik. –Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2009 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Abdullaev SH.YU., Islomxujaeva F.X. YUz-jag‘ sohasi birgalikdagi jarohatlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. TDSI bosmaxonasi. 2018 y.
2. Афанасьев В.В., Травматология челюстно – лицевой области. Учебник. – Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2010 г.
3. Робустова Т.Г. Хирургическая стоматология: Учебник. 4–е издание. – Москва. Медицина. 2010 г.
4. Тимофеев А. А. Челюстно–лицевая хирургия. Учебное пособие. – Киев. Медицина. 2010 г.
5. Neelima Anil Malik. Textbook of Oral and Maxillofacial Surgery. Second Edition© India. JPBMP Printed at Ajanta. 2008 u.
6. Кенбаев В.О. Травматология челюстно–лицевой области. Учебное пособие. – Шымкент. Медицина. 2006 г.
7. Рабухина Н.А., Аржанцев А.П. Рентгенодиагностика в стоматологии – Москва. Медицинское информационное агенство. 2006 г.
8. Робустова Т.Г. Хирургическая стоматология. Учебник. -Москва. Медицина. 2003 г.
9. Тимофеев А. А. Руководство по челюстно–лицевой хирургии и хирургической стоматологии. – Киев. Медицина. 2002 г.
10. Шаргородский А. Г. Клиника, диагностика, лечение и профилактика воспалительных заболеваний лица и шеи. Учебное пособие. – Москва. ГЭОТАР–Медиа. 2002 г.
11. Безруков В.М., Робустова Т.Г. Руководство по хирургической стоматологии и челюстно–лицевой хирургии. – Москва. Медицина. 2000 г.

Internet saytlari:

1. www.tsdi.uz
2. www.dental–revue.ru
3. www.e–stomatology.ru
4. www.dentalyug.ru
5. www.dentist.med–place.ru
6. www.stomatolog.com.ua
7. www.medlibrary. ru
8. www.medline.ru
9. www.zyonet.uz

10. www. info@ minzdrav.uz
11. www.Consilium–medicum.com.
12. medline;
13. e–library;
14. katalog «Korbis»;

7	Modulning o‘quv dasturi Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2024-yil 12-avgustdagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun masullar:** Pulatova B.J. - Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti Stomatologiya kafedrasi mudiri Nietullaev T.S. – Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti Stomatologiya kafedrasi assistenti
9	**Taqrizchilar:** **Ichki taqrizchi:** **Normaxmatov B.T** - Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti Stomatologiya kafedrasi dotsent, t.f.d **Tashqi taqrizchi:** **Annaqulova G.** – Qoraqalpog’iston Respublikasi Bolalar stomatologiya poliklinikasi bo’lim mudiri